

## Sporalilar (sporozoa) tipi

**Tursunova Zebiniso Bahromjon qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yoʻnalishi  
1-bosqich 103-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Bu tezisdan Sporalar (sporozoa) tipi va sinflariga qisqacha maʼlumot keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** Sporalar, sporozoa, gregarinina, coccidiomorpha, eugregarinida, coccidiida, haemosporidia, piroplasmida.

**Abstract:** This thesis provides a brief overview of the types and classes of sporolae (*Sporozoa*)

**Key words:** Spores, sporozoa, gregarinina, coccidiomorpha, eugregarinida, coccidiida, haemosporidia, piroplasmida.

Bu tipga 4000 dan ortiq turlar mansub boʻlib, ularning deyarli hammasi hayvonlar va odam organizmida parazitlik qiladi va biror kasallik keltirib chiqaradi. Tip gregarinalar (*Gregarinina*) va koksidiyalar (*Coccidiomorpha*) sinflariga ajratiladi. Parazit hayot kechirishi natijasida ularning tanasi maʼlum darajada soddalashgan, himoya poʻstiga oʻralgan boʻladi. Koʻpchilik sporalilar hayotining maʼlum davrida spora hosil qilish xususiyatiga ega. Spora hayvonni tashqi muhitning noqulay sharoitidan saqlaydi. Ularning harakatlanish organoidlari, qisqaruvchi va ovqat hazm qilish vakuolalari rivojlanmagan. Hamma sporalilar murakkab rivojlanish sikliga ega boʻladi. Hayot siklida jinsiz, jinsiy va sporogoniya jarayonlari almashib turadi. Jinsiz koʻpayishi hujayraning koʻp marta boʻlinishi (shizogoniya) dan iborat.

Jinsiy koʻpayish koʻpchilik sporalilarda ikki xil tipdagi gametalar (anizogametalar) ning kopulyatsiyasidan iborat. Faqat gregarinalar bir xil tipdagi gametalar (izogametalar) hosil qiladi. Zigotasi odatda qalin poʻst bilan oʻralgan boʻlib, *oosista* deyiladi. Oosista ichida *sporogoniya* natijasida *sporozoitlar* hosil boʻladi. Birqancha sporalilarda sporozoitlar ham qattiq qobiq hosil boʻladi. Sporozoitlar hosil boʻlishi bilan parazitning rivojlanish sikli tugallanadi. Sporalar zigotasining dastlabki boʻlinishi meyozi yoʻli bilan boradi. Bu jihatdan ular foraminiferalar va barcha xivchinlilar singari zigota davrida reduksiyaga uchragan gaploid xromosomal organizmlar hisoblanadi.

Gregarinalar (*Gregarinina*) sinfiga qisqacha taʼrif. Gregarinalar 500-1000 turni oʻz ichiga oladi. Hamma gregarinalar umurtqasiz hayvonlarda parazitlik qiladi. Asosiy koʻpchilik turlari boʻgʻimoyoqlilar, asosan hasharotlarning ichagida yashaydi. Ayrim vakillari halqali chuvalchanglar, ignaterililar va qobiqlilarda ham uchraydi. Gregarinalarni

hayvonlarning tana bo'shlig'i, jinsiy organlari va boshqa organlarida uchratish mumkin. Gregarinalarning jinsiy ko'payishi o'ziga xos bo'lib, boshqa sporalilardan farq qiladi.

Ular orasida bo'g'imoyoqlilarning ichagida yashovchi haqiqiy gregarinalar (Eugregarinida) turkumi vakillari eng murakkab tuzilgan.

Gregarinalar xilma-xil shaklda; kattaligi 10 mkm dan 16 mm gacha bo'ladi. Tana shakli va kattaligi ularning qaysi organda parazitlik qilishiga ko'p jihatdan bog'liq. Gregarinalarning tanasi tashqi tomondan mustahkam pellicula qobiq bilan qoplangan.

Jinssiz ko'payish faqat kam sonli arxegregarinalar hamda neogregarinalar turkumlari vakillarida kuzatilgan. Asosiy ko'pchilik gregarinalar, xususan haqiqiy gregarinalar turkumi vakillari faqat jinsiy yo'l bilan boradi.

Koksidiyasimonlar (*Coccidiomorpha*) sinfiga qisqacha ta'rif. Koksidiyasimonlar sinfi juda xilma-xil tuzilgan 2400 ga yaqin turni o'z ichiga oladi. Har xil halqali chuvalchanglar, mollyuskalar, bo'g'imoyoqlilar va umurtqali hayvonlarda parazitlik qiladi. Koksidiyasimonlar hujayra ichida parazitlik qilishi bilan gregarinalardan farq qiladi. Ko'pchilik turlarining hayot sikli jinssiz va jinsiy ko'payish hamda sporogoniyaning qonuniy gallanishi orqali boradi. Xo'jayin almashtirmasdan rivojlanadigan turlarida sporogoniya tashqi muhitda boradi. Xo'jayin almashtirib rivojlanadigan turlarida esa sporogoniya va jinssiz ko'payish boshqa-boshqa xo'jayinlar organizmida rivojlanadi.

Koksidiyasimonlarning bir qancha turlari uy hayvonlari, parrandalar va baliqlarga katta ziyon yetkazadi. Ular orasida bitta turi odamda parazitlik qiladi. Quyida koksidiyasimonlarning eng muhim turkumlari keltiriladi.

1-Turkum: Koksidiyalar (*Coccidiida*)

2-Turkum: Qon sporalilar (*Haemosporidia*)

3-Turkum: Piroplazmidlar (*Piroplasmida*)

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umurtqasizlar zoologiyasi – O.Mavlonov, Sh.Xurramov, X.Eshova (2006) 53-54-56-57-63-67-betlar.
2. Zoologiya – Dj.Urchinov (1996) 12-bet.
3. Zoologiya – Ochil Mavlonov (2010) 38-bet.
4. Zoologiya – S.Dadayev, O.Mavlonov (2008) 14-bet.
5. Parazitologiya – S.Dadayev (2006) 28-bet.

